

**Orzu, armonlari ifodasi yoxud Bobur mirzo izidan  
(Shoh va shoir Z.M. Bobur tavalludining 542 yilligiga bag'ishlanadi.)**

**Muallif: O'zbekiston Respublikasi IIV 2-sonli Toshkent akademik litseyi  
tarix fani o'qituvchisi Meyliyeva Saodat Ismatovna.**

...Samarqand nechta hukmdorlar uchun orzu ,armon bo'lgan bu shahar. XV-  
XVI asrlarda buyuk Amir Temur va temuriylar poytaxti bo'lgan bu shahar  
jahonning ko'zi gavhari edi... Balki,

“Samarqand sayqali ro'yi zamin ast ,

Buxoro mash'ali islomi din ast.” -degan ta'riflar o'sha davrlarda yozilgandir.



...Tarixda shunisi qiziqki buyuk bobosi Amir Temurning poytaxti bo'lgan bu  
shaharni egallash va butun Movarounnahrni temuriylar bayrog'i ostida birlashtirib  
yagona davlatga aylantirish barcha temuriyzodalar Bobur mirzoning amakisi Sulton  
Ahmad mirzo va uning farzandlari bo'lgan Boysunqur mirzo va Sulton Ali mirzolar  
,shu jumladan Sulton Ahmadning jiyani bo'lgan Bobur mirzoning ham bir umrlik  
orzusi edi... Samarqand orzusi yo'lida 15-16 yoshida yigitlikning eng balog'at  
davrlarida yosh Bobur mirzo qancha mashaqqatlar chekmadi deysiz....

Oллоh borki ,hayot doimo g'oliblarni taqdirlaydi va o'zi suygan  
bandalarining bardoshini azob-uqubatlar bilan sinaydi. Shuni aytmoq joizki,yosh  
Bobur mirzo necha bor Samarqand sari intilgan bo'lsa barchasida buyuk bobosi  
yurtini egalladi. Ammo uning bardoshi or-nomusi,vijdoni hayot sinovlariga duchor  
bo'ldi va barchasiga mardlarcha dosh bera oldi.

1495-1496 yil qish fasli Bobur Mirzo Buxoro va Hisor sultonlari bilan  
birlashib Samarqandni qamal qildi.Lekin qamal natija bermay sultonlar iziga  
qaytdilar, Bobur mirzo esa oxirigacha kurashdi. Samarqand sulton Boysunqur  
mirzoga tegishli bo'lib ,bu sulton Muhammad Shayboniyxon bilan ittifoq tuzadi

.Qozoq xoni unga yordamga kelganda uning o'zidan cho'chigan Boysunqur mirzo ittifoqchisini shaharga kiritmaydi .Konigilda to'xtagan hafsalasi pir bo'lgan Muhammad Shayboniyxon Turkistonga qaytib ketadi, 1497 yil may oyida Bobur mirzo Samarqandni egalladi. Boysunqur mirzo qochib ketadi. Yom qishlog'ida qarorgoh qurgan Bobur mirzo Samarqandni jangsiz egalladi va 100 kun boshqardi .Yosh Bobur mirzoning sabr-toqati shu tariqa mukofotlandi. Boysunqur mirzoning ukasi Sulton Ali mirzo esa Qarshi va Buxoro atroflarini egallagan edi.Bobur mirzoga Andijonda fitna qo'zg'alishi ukasi Jahongir mirzo tarafdorlarining hokimiyat uchun kurashi ,amakisi Sulton Ahmad mirzoning Farg'onaga hujumi og'ir zarba bo'ldi.Ota yurtidan mahrum bo'lish qayg'usi Bobur mirzoni Samarqanddan ketishiga sabab bo'ldi .Taqdir inoyatini qarangi, Bobur mirzo Andijon tomon yo'lga chiqsin,xuddi shu vaqtda Farg'ona Quvasoyda yog'och ko'prikdan qo'shini bilan o'tayotgan kekxa Sulton Ahmadxon eski ko'prikdan yiqilib vafot etadi ,Farg'ona va Andijon yurti yana Bobur mirzo ixtiyorida qoldi.... Bobur mirzo ukasi Jahongir mirzo atrofida bilan oralarida nifoq bo'lishini istamas edi.Bobur mirzoning sodiq amirlari bosh vazir Qosimbek qavchin,Shayx Mazidbek va Boboqli,Boboalibeklar doim uni qo'llab turdilar ,lekin amirlaridan Ahmad tanbal va Uzun Hasan uning Samarqandda ekanligidan foydalanib Andijon taxtiga ukasi Jahongir mirzoni o'tqizadilar.Kichik ukasi Nodir mirzo tarafdorlari Andijonga yurish uyushtirib shaharni egallaydilar va Andijonni Bobur mirzoga topshiradilar. 1500 yil fevralida Bobur mirzo Jahongir mirzo tarafdorlari bilan sulh tuzadi.Sirdaryoning shimoli va Axsi qal'asini ukasi Jahongir mirzoga berdi .O'zi esa Sirdaryoning janubi va Andijon hukmdori bo'ldi.

1500 yil kuzi Movarounnahr hukmdori bo'lgan Sulton Ali mirzo akasi Boysunqur mirzoning xatosini takrorlab onasi Zuhrabegim orqali Bobur mirzoga qarshi yashirincha Muhammad Shayboniyxon bilan ittifoq tuzadi .Samarqand shahrini hiyla yo'li bilan jangsiz egallagan Muhammad Shayboniyxon va'dasida turmay Sulton Ali mirzoni qatl etib ,Sulton Ahmadxonning rafiqasi Zuhrabegimni 5 xotinli qassob amirga hadya qilib yuboradi .Bu temuriyzodalar uchun juda katta nomussizlik edi .Samarqand shayxulislomi Abulmakorim yana Bobur mirzoga elchi yuborib uni Samarqandni egallashga undaydi... Urushlar tufayli Bobur mirzoning 240 askari qolgan edi.Sulolasi manfaatlariga sodiq bo'lgan Z.M.Bobur mirzo 1500 yil kuzida Samarqandga qo'shin tortadi va yana Samarqandni ikkinchi bor egallaydi.Bobur mirzo endi 19 yoshda edi.Samarqand ahli Bobur mirzoga o'z sadoqatini izhor etadi.Bobur mirzo katta kuch yig'ib 1501 yil Saripul degan joyda M.Shayboniyxon bilan ikkinchi bor to'qnashdi Lekin jangda yengiladi va Samarqandga chekinadi.Keyin amakisi Xuroson hukmdori sulton Husayn Boyqaro va Qoshg'ardagi tog'asi sulton Mahmudxondan yordam so'raydi. Olti oylik

qamaldan so'ng Muhammad Shayboniyxon Boburning opasi Xonzodabegimga sovchi yuboradi va sulh taklif qiladi, 50 yoshli bu nomussiz hukmdorning befarosatligi yosh Bobur mirzoning qahr-g'azabini keltiradi. Lekin qamaldan omon chiqishning boshqa iloji yo'q edi. Buvisi Eson Davlatbegim, boburiylar oilasi taqdiri, saroy ahli, qolaversa qolgan qo'shinning hayoti, omonligi evaziga vaziyatni Bobur mirzoning onasi Qutlug'nigorxonim va opasi go'zal Xonzodabegimga tushuntiradi. Bobur mirzoning rozi bo'lmasligini sezib opasi Xonzodabegim qolganlar omonligi evaziga bu nikohga rozilik beradi.

Shunday qilib Bobur mirzo Farg'ona yo'li orqali Pomir tog'lari orqali Qobulga o'z meros mulkiga ketishga majbur bo'ladi. Bobur mirzoning qizi Gulbadanbegim (1523-1603 y) "Humoyunnoma" asarida yozishicha " ...Jami: 250 ga yaqin kishi Bobur mirzo izidan Surxon dashtlari bo'ylab bir vaqtlar bobosi Abu Said mirzo Boburning otasi Umarshayx mirzoga mulk qilib bergan Qobulga va Badaxshon sari yo'l oldilar ...Yo'l olis, otlar horigan, oziq-ovqat yetishmasdi. Hamrohlari ichida ayollar, bolalar bor edi, O'z taqdiridan xafa bo'lib ketgan Surxon dashtlarini yalang oyoq kezgan Bobur mirzoning quyidagi g'azali balki shu davrda yozilgandir:

Kim ko'ribtur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig',  
Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutmaondin yaxshilig'.  
Gar zamoni naf'i qilsam, ayb qilma, ey rafiq.  
Ko'rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig'.



**Adabiyotlar :**

- 1.Z.M.Bobur “ Boburnoma” T-2017 yil
- 2.M Mo’minov”Samarqand tarixi .1-qism.T.”Fan” nashriyoti .1971 yil.
- 3.A Qayumov “Zahriddin Muhammad Bobur “T.”Fan” nashriyoti .2008 yil.